



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buguk
davlat

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan



www.xs.uz



E-mail: info@xs.uz



2026-yil 14-may, № 97 (9268)

Payshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni
telefoningiz orqali skaner qiling.



ENERGETIKA VA NEFT-GAZ SOHASIDA XALQARO HAMKORLIK ISTIQBOLLARI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 13-may kuni “O'zbekiston energetika haftaligi – 2026” forumida ishtirok etish uchun mamlakatimizga kelgan Ozarbayjonning “SOCAR” kompaniyasi bosh direktori Rovshan Najaf hamda “British Petroleum” kompaniyasi rahbariyati Ariel Flores va Jovanni Kristofolini qabul qildi.



Uchrashuvda energetika va neft-gaz sohasida yetakchilardan hisoblangan ushbu yirik kompaniyalar bilan o'zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirish masalalari ko'rib chiqildi.

Energetika sohasidagi kooperatsiya muvaffaqiyatli kechayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. “SOCAR” kompaniyasi Ustyurt platosidagi uglevodorod konlarini o'zlashtirish loyihagini amalga oshirishda O'zbekistonning sherigi hisoblanadi. “SOCAR”ning O'zbekistondagi vakolatxonasini ochish to'g'risida qaror qabul qilindi.

Ushbu keng ko'lamli loyihaga “British Petroleum” kompaniyasi qo'shilganiga yuksak baho berildi.

Neft-gaz sohasida uglevodorod xomashyosini qidirish, qazib olish va chuqur qayta ishlash, neft va neft mahsulotlarini uzoq muddatli yetkazib berishni yo'lga qo'yish hamda tarmoq uchun mutaxassis kadrlar tayyorlash bo'yicha qo'shma loyihalarni ilgari surish muhimligi ta'kidlandi.

Bundan tashqari, Ozarbayjon futbol federatsiyalari assotsiatsiyasi raisi sifatida ham faoliyat yuritayotgan Rovshan Najaf davlatimiz rahbariga 2027-yilda O'zbekiston va Ozarbayjonda yoshlar o'rtasidagi “U-20” jahon chempionatini o'tkazishga birgalikda tayyorgarlik ko'rishdagi ko'magi uchun minnatdorlik bildirdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Matbuot xizmati surati.

TOSHKENT METROPOLITENIDA AHOLIGA XIZMAT KO'RSATISH SIFATI YANADA YAXSHILANADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev Toshkent metropolitenida yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish sifati va xavfsizligini ta'minlash hamda infratuzilmadan foydalanish samaradorligini oshirish yuzasidan takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

Poytaxt aholisi va mehmonlari soni ortib borayotgani, shahar kengayishi va jamoat transportiga talab oshishi metropoliteni rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqishni taqozo etmoqda. Shu maqsadda 2030-yilgacha metropolitenida kunlik yo'lovchilar sonini 1,8 million nafarga yetkazish, metro bekatlari sonini 79 taga, liniyalar uzunligini 103 kilometrgacha oshirish maqsad qilingan. Shuningdek, poyezdlar harakati intervalini bosqichma-bosqich 1,5 – 3 daqiqagacha qisqartirish ko'zda tutilgan.

Metropoliten infratuzilmasini yaxshilash va moliyaviy sog'lomlashtirish bo'yicha ham qator choralar belgilanmoqda. Jumladan, 2026 – 2028-yillarda xizmat ko'rsatish sifati oshirish va fuqaro muhofazasi obyektlari texnik bazasini takomillashtirish choralari ko'riladi.

Yo'lovchilar xavfsizligini kuchaytirish maqsadida “Shahriston” metro bekati

platformalarida sinov tariqasida oynali himoya to'siqlarini o'rnatish taklif etildi. Xalqaro tajribaga ko'ra, bunday to'siqlar platformalardagi baxtsiz hodisalarni 80 – 90 foizgacha kamaytirish imkonini beradi. Shu bilan birga, ular qo'shimcha reklama maydonlarini yaratish orqali daromadlarni oshirishga ham xizmat qiladi.

Yana bir muhim yo'nalish – yangi liniyalar qurilishi. Xususan, “Mingo'rik – Chilonzor buyum bozori” metropoliten liniyasi bo'yicha loyiha baholash hujjatlarini ishlab chiqish rejalashtirilgan. Birinchi bosqichda “Mingo'rik – Janubiy vokzal” yo'nalishi, ikkinchi bosqichda esa “Janubiy vokzal – Chilonzor buyum bozori” yo'nalishini qurish imkoniyatlari o'rganiladi.

Metropolitenida qo'shimcha daromad manbalarini shakllantirish masalalariga ham alohida e'tibor qaratildi. Vagon va platformalarda raqamli reklama maydonlarini auktsion orqali xususiy sektorga ijaraga

berish, metro bekatlarida vending apparatlari, kichik savdo obyektlarini joylashtirish, stansiyalar oldida avtoturargohlar tashkil qilish rejalashtirilmoqda. Shuningdek, bo'sh turgan bino va xonalarni kovorking va kichik ofis sifatida tadbirkorlarga auktsion asosida ijaraga berish taklif etildi.

Avtotransportdan metro tizimiga qulay o'tishni ta'minlash maqsadida “Park&Ride” tizimini yo'lga qo'yish taklif qilindi.

Taqdimotda harakat tarkiblarini yangilash va elektrodepo qurish masalalari ham muhokama qilindi. 2027 – 2030-yillarda metropoliten uchun talab etiladigan harakat tarkiblarini xarid qilish bo'yicha takliflar ishlab chiqiladi. Shu munosabat bilan yangi harakat tarkiblari uchun elektrodepo qurishga zarur yer maydoni ajratiladi.

Shuningdek, 2027 – 2035-yillarda Toshkent metropolitenini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish belgilanmoqda. Unda metropoliten tarmoqlarini ikki barobar

kengaytirish, yo'lovchi tashish hajmini 2,5 barobar oshirish, ekologik barqaror, energiya tejamkor va xavfsiz transport tizimini yaratish, servis sifati va yo'lovchilar uchun qulayliklarni yanada oshirish vazifalari qamrab olinadi.

Yo'lkira haqini to'lash tizimini takomillashtirish bo'yicha ham takliflar bildirildi. Xorijiy tajriba asosida masofaga qarab to'lash, aholi toifalari uchun imtiyozlar, kunlik, haftalik va oylik abonentlar tizimini joriy etish imkoniyatlari o'rganiladi.

Prezidentimiz jamoat transporti, ayniqsa, metropoliten yirik shahar hayotida eng muhim infratuzilmalardan biri ekanini ta'kidladi. Shu bois xizmat sifati, xavfsizlik, moliyaviy barqarorlik va zamonaviy boshqaruvni bir-biri bilan uzviy bog'liq holda rivojlantirish zarurligi qayd etildi. Taqdim qilingan takliflar ma'qullanib, ularni amalga oshirish yuzasidan mutasaddilarga topshiriqlar berildi.

O'ZA.

Parlament diplomatiyasi

SENAT RAISI BMT BOSH KOTIBINING MAXSUS VAKILI BILAN UCHRASHDI

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva Buxoro shahrida Markaziy Osiyo mamlakatlari va Ozarbayjon yetakchi ayollari muloqotining navbatdagi majlisida ishtirok etish uchun mamlakatimizga tashrif buyurgan BMT Bosh kotibining Markaziy Osiyo bo'yicha maxsus vakili, BMTning Markaziy Osiyo uchun Preventiv diplomatiya bo'yicha mintaqaviy markazi rahbari Kaxa Imnadze bilan uchrashuv o'tkazdi.

Unda hamkorlik, xotin-qizlarning jamiyat va davlat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirish, shuningdek, mintaqaviy hamjihatlikni

mustahkamlash masalalari muhokama qilindi.

2026-yil sentabr oyida Samarqand shahrida o'tkazilishi rejalashtirilgan Yosh parlament

a'zolarining 12-global konferensiyasiga tayyorgarlik yuzasidan ham fikr almashildi.



Anjuman

MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARI VA OZARBAYJON YETAKCHI AYOLLARI MULOQOTI

Ko'hna hamda navqiron Buxoro shahri Markaziy Osiyo mamlakatlari va Ozarbayjon yetakchi ayollari muloqotiga mezbonlik qilmoqda. Tadbir qatnashchilari safida mintaqadavlatlari parlamentlari rahbarlari, BMTning ixtisoslashtirilgan tuzilmalari vakillarini ko'rish mumkin.

Ushbu mintaqaviy platformaga 2020-yil dekabr oyida xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning mintaqaviy birlikni yanada mustahkamlab, o'zaro manfaatli hamkorlik aloqalarini kuchaytiradi.

Davlatimiz mazkur

muloqotga Ozarbayjon Respublikasining joriy yilda qo'shilishi mintaqaviy birlikni yanada mustahkamlab, o'zaro manfaatli hamkorlik aloqalarini kuchaytiradi.

Davlatimiz mazkur

muloqotga 2021-yilda raislik qilgan. Joriy yilda ham u aynan shu vazifani o'tamoqda. O'tgan davr orolig'ida mazkur platforma doirasida qator uchrashuvlar o'tkazildi.



Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

DEPUTATLAR MUHOKAMALARDA QANDAY MASALALARNI KO'TARDI?



Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi. Unda harbiy xizmatchilar maqomi va ularning ijtimoiy himoyasi, safarbarlik tayyorgarligi va mazkur sohada munosabatlarni tartibga solishga, bank, moliya tizimi barqarorligini mustahkamlashga, inson huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirishga, Bola huquqlari bo'yicha vakil faoliyatini yanada samarali tashkil etishga, professional va salohiyatli kadrlar qatlamini shakllantirishga, aholining ehtiyojmand qatlamlarini qo'llab-quvvatlashga doir qator qonun loyihalari ko'rib chiqildi.

Ushbu masalalar siyosiy partiyalar fraksiyalarida, mas'ul qo'mitalar, ishchi guruh yig'ilishlarida ekspertlar, tegishli vazirlik hamda idoralar mutaxassislari ishtirokida atroflicha muhokama qilingani qayd etildi.

Harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarini ijtimoiy himoya qilish kafolatlari mustahkamlanmoqda

Deputatlar dastlab “Harbiy xizmatchilar maqomi va ularni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida”gi qonun loyihasini birinchi o'qishda ko'rib chiqdi.



O'ZBEKISTON PREZIDENTI BMT AHOLISHUNOSLIK JAMG'ARMASI RAHBARINI QABUL QILDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizga rasmiy tashrif bilan kelgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibining o'rinbosari, Aholishunoslik jamg'armasi (UNFPA) ijrochi direktori Diyene Keytani qabul qildi.

Uchrashuv avvalida UNFPA rahbari mamlakatimiz yetakchisiga BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrishning salomi va samimiy tilaklarini yetkazdi.

BMTning aholishunoslik sohasidagi nufuzli instituti bilan hamkorlikning dolzarb masalalari ko'rib chiqildi.

Keyingi yillarda O'zbekistonning UNFPA bilan hamkorligi sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilgani ta'kidlandi. Reprodukativ salomatlik, gender tenglik, demografik barqarorlikni ta'minlash sohalarida muhim loyihalar amalga oshirildi. Jamg'arma mamlakatimiz tarixidagi birinchi aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish jarayonida faol ishtirok etdi.

Ona va bola salomatligini mustahkamlash, yosh oilalarni qo'llab-quvvatlash, xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini himoya qilish borasidagi ijobiy natijalar alohida qayd etildi.

Hamkorlikni yanada chuqurlashtirish, jumladan, mamlakat dasturi doirasida yangi qo'shma tashabbuslarni amalga oshirish, O'zbekistonda va BMT doirasida yuqori darajadagi tadbirlarni o'tkazishga kelishib olindi.

O'ZA.

Aks sado

ERKINLIK VA ADOLAT MUHITI — YUKSALISH POYDEVORI

Kuni kecha Usmon Azimning “Xalq so'zi” gazetasida e'lon qilingan “Riyosiz so'zlar” maqolasini o'qib, unda Yangi O'zbekistonda kechayotgan tarixiy o'zgarishlar va xalqimiz qalbidagi ko'tarinki kayfiyat yorqin namoyon bo'lganini his etdim.

Ayniqsa, muallif tomonidan kechagi va bugungi hayot o'rtasidagi farqning hayotiy misollar orqali ochib berilgani har bir o'quvchini to'liqlantirishi tabiiy. Chunki maqolada tilga olingan fikrlar ortida mamlakatimizda qaror topayotgan erkinlik muhiti, adolat tamoyili va xalq bilan davlat o'rtasidagi mustahkam ishonch mujassam.

Haqiqatan ham, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida boshlangan islohotlar mamlakat hayotining barcha sohasini qamrab oldi. Eng muhimi, odamlarning ongi va kayfiyati o'zgardi. Ilgari jamiyatda qo'rquv, yopiqlik hamda ma'muriy bosim ustun bo'lsa, bugun ochiqlik, muloqot va adolat tamoyillari hayotimizga chuqur kirib kelmoqda. Inson manfaatida davlat siyosatining bosh mezoniga aylandi. Fuqarolarning erkin mehnat qilishi, tadbirkorlik bilan shug'ullanishi, mulkdor bo'lishi, tashabbus ko'rsatishi uchun keng imkoniyatlar yaratildi.



HAYOTIMIZNI O'ZGARTIRAYOTGAN ISLOHOTLAR

Mamlakatimiz tarixida va bugungi ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotida Surxon vohasining o'ziga xos o'rnini bor. Bu, bir tomondan, voha ahlining mehnatsevarligi, bog'dorchiligi dehqonchilik ilmini puxta o'zlashtirgani bilan izohlansa, ikkinchi tomondan, Surxondaryoga tabiat ato etgan iqlim tufayli bo'lsa, ajab emas.

Chunki O'zbekistonimizga bahor avval Surxon kengliklariyu qir-adirlari oralab kirib keladi. Uning zamini ne-ne ijodkorlarga ilhom bag'ishlamagan, deysiz. Bu o'lka bugun ham ayni rivojlanish va taraqqiyot pallasida.

O'zbekiston xalq shoiri Usmon Azimning yaqinda “Xalq so'zi” gazetasida chop etilgan “Riyosiz so'zlar” maqolasini o'qir ekanman, vohada ro'y berayotgan o'zgarishlar yana bir bor ko'z oldimda butun bo'y-basti bilan namoyon bo'ldi. Chunki shu yurning farzandi sifatida bu yerdagi har bir yangilikdan xabardorman. Keyingi yillarda viloyatimiz shiddatli odimlar bilan ilgarilamodga. Hayotimiz shu qadar tez o'zgarmodaki, buni his qilmaslik mumkin emas. Qishloq xo'jaligi, turizm, iqtisodiy yo'nalish deysizmi, buyuk ajdodlarimiz merosini o'rganish va uni asrab-avaylash yo'lidagi sa'y-harakatlarni – bularning barchasi viloyatdagi tub islohotlar qamrovi naqadar kengligini namoyon qilmoqda.



SENAT RAISI BMT BOSH
KOTIBINING MAXSUS
VAKILI BILAN UCHRASHDI

1 BMTning Markaziy Osiyo uchun Preventiv diplomatiya bo'yicha mintaqaviy markazining mazkur nufuzli tadbirida ishtiroki, shuningdek, "Yoshlarning preventiv diplomatiyadagi o'ri" mavzuida sayd-ivent tashkil etish imkoniyatlari ko'rib chiqildi.

Shu bilan birga, ayollar va yoshlarni zo'raonlikdan himoyalash, ushbu yo'nalishda qo'shma seminarlar tashkil qilish va ilg'or tajriba almashish bo'yicha tizimli hamkorlikni rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

MINTAQADA
PARLAMENTLARARO
ALOQALAR
MUSTAHKAMLANADI

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva Buxoro shahrida Qozog'iston, Qirg'iziston va Turkmaniston parlamentlari a'zolari bilan ikki tomonlama uchrashuvlar o'tkazdi.

Qozog'iston Parlamenti Majlisi Raisi o'rinbosari Daniya Yespayeva bilan uchrashuv chog'ida O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi strategik sheriklik, parlamentlararo hamkorlik va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash masalalari muhokama qilindi.

Shuningdek, Qirg'iz Respublikasi Jogorku Keneshi Raisining o'rinbosari Jildiz Taalaybek qizi bilan kechgan muloqotda ikki davlat o'rtasidagi do'stlik va yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini yanada mustahkamlash, xotin-qizlar yetakchiligi rivojlantirish hamda parlamentlararo aloqalarni kengaytirish yuzasidan fikr almashildi.

Xotin-qizlarning ta'lim, innovatsiya va raqamli texnologiyalar sohasidagi faolligini oshirish bugungi kunning muhim vazifalaridan biri ekanini qayd etildi.

Turkmaniston Mejlisi Raisi Dunyogo'zal Gulmanova bilan muloqotda esa transport, tranzit, chegaradagi hamkorligi va xotin-qizlarni raqamli texnologiyalar sohasiga keng jalb etish yo'nalishlaridagi hamkorlik masalalari muhokama qilindi.

Senat Raisi xotin-qizlarning "yashil" iqtisodiyot va ekologik tashabbuslardagi ishtirokini qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega ekanini alohida ta'kidladi.

"Xalq so'zi".



1 Gender tenglikni ta'minlash, xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish bilan bog'liq ko'plab dolzarb masalalar muhokama qilindi. Bu yo'nalishda mintaqaviy hamkorlik istiqbollari belgilab olindi.

Majlisda so'z olgan Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva mintaqada xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ular salohiyatini yuzaga chiqarish, davlat boshqaruvidagi rolini kuchaytirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar jamiyat hayotida muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidladi.

Turkmaniston Majlisi Raisi D.



Akmal MUHAMMADOV o'lgan sur'atlar.

MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARI VA OZARBAYJON
YETAKCHI AYOLLARI MULOQOTI

Gulmanova, Qozog'iston Respublikasi Parlamenti Majlisi raisi o'rinbosari D. Espayeva, BMT Bosh kotibining Markaziy Osiyo bo'yicha maxsus vakili, Markaziy Osiyo uchun preventiv diplomatiya bo'yicha BMT mintaqaviy markazi rahbari K. Imnadze va boshqalar o'z chiqishlarida ushbu muloqot maydoni ayollarning barcha integratsiya va davlatlararo hamkorlik jarayonlaridagi ishtirokini faollashtirib, mamlakatlar taraqqiyotiga tobora muhim hissa qo'shayotganini ta'kidladi.

Asrlar davomida ma'rifat va ilm-fan markazi bo'lib kelgan qadimiy Buxoroda Birlashgan Millatlar Tashkiloti nomidan so'zga chiqish sharaflari, dedi BMTning O'zbekistondagi doimiy koordinatori Sabina Maxl. Ushbu muloqot muhim tendensiyani o'zida aks ettirmoqda: mintaqalar kelajagi nafaqat iqtisodiy o'sish va texnologiyalarga, balki inson salohiyati, avvalo, ayollar va yoshlar imkoniyatini nechog'li samarali yuzaga chiqara olishimizga bog'liq. Mintaqada davlatlararo hamkorlik kuchaymoqda,



ta'limga, raqamlashtirish va barqaror rivojlanishga sarmoya kiritish miqdori oshayotir. Shu bilan birga, mintaqalar mamlakatlari iqlim o'zgarishi, suv resurslari taqchilligi, iqtisodiyotning yangi texnologik realliklarga moslashish zaruriyati bilan bog'liq umumiy vazifalarga yuzma-yuz kelmoqda. Aynan shuning uchun olimlar ayollar, yetakchi ayollarning o'ri juda muhim ahamiyatga ega. O'rganishlar ko'rsatmoqdaki, qizlarni o'qitishga yo'naltirilgan har bir dollar yalpi ichki mahsulotga qo'shimcha

2,8 dollar keltirishi mumkin. Markaziy Osiyo mamlakatlari va Ozarbayjon yetakchi ayollari muloqotining bu galgi majlisida xotin-qizlarning ilm-fandagi yetakchiligi, hozirgi zamon tahdidlari, innovatsion yechimlar va ilmiy hamkorlik masalalari muhokama qilindi. Olimlar ayollar forumi shu mavzuga bag'ishlandi.

Forum doirasida ikkita panel sessiya bo'lib o'tdi. Dastlabki ilmiy fan yutuqlari va innovatsiyalardan foydalanish orqali mintaqani rivojlantirish imkoniyatlari hamda istiqbollari bag'ishlandi. Ikkinchi sessiyada esa barqaror rivojlanish, ekologiya, sun'iy intellekt, madaniy meros va jamoat salomatligi masalalari muhokama qilindi.

Men Buxoroning olis Kumushkent qishlog'ida o'sib-ulg'ayganman, deydi tadbir qatnashchisi, Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi, kimyo fani bo'yicha falsafa doktori Gulayra Xoliqova. Davlatimiz yaratib bergan imkoniyatlardan oqilona foydalanib, oliy ma'lumotli bo'ldim. Ilmiy izlanishlar olib borib, muayyan yutuqlarga erishdim. Taklifim asosida amaliyotga qo'llangan ishlarni Gazli gazni qayta

ishlash korxonasiga iqtisodiy foyda keltirmoqda.

Muhokamalar davomida mintaqalar mamlakatlarining ilmiy salohiyatini rivojlantirish, innovatsion ekotizimni kengaytirish, ilmiy va texnologik hamkorlikni mustahkamlash hamda ilmiy tadqiqot faoliyatida xotin-qizlarning rolini oshirish masalalari ko'rib chiqildi. Iqtisodiyotni diversifikatsiyalash vositasi sifatida ilm-fandan foydalanish, mamlakatlar o'rtasida texnologik hamkorlikni rivojlantirish, ilm-fanni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish va samarali innovatsion infratuzilmani shakllantirish, atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish va ekologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan "yashil" texnologiyalarni rivojlantirish masalalariga alohida urg'u berildi. Bildirilgan taklif va tavsiyalar asosida olimlar ayollarning "SheScience Central Asia" mintaqaviy tarmog'ini yaratishni nazarda tutuvchi qo'shma kompyuterni qabul qilindi. Forum o'z ishini davom ettirmoqda.

Istam IBROHIMOV
("Xalq so'zi").

XOTIN-QIZLAR SALOHİYATINI OSHIRISHGA
QARATILGAN AMALIY MAYDON

Asrlar davomida ilm-fan, madaniyat va islom dini markazi bo'lib kelgan Buxoro shahrida o'tkazilayotgan Osiyo xotin-qizlarining II forumi nafaqat mintaqaviy diplomatik muloqot, balki ayollarni barcha sohadagi ishtirokini qo'llab-quvvatlash, ularni har tomonlama rag'batlantirish, haq-huquqlarini himoya qilish, eng asosiysi, orzu-maqсадlarini ro'yobga chiqarishga qaratilgan muhim platformadir.

Munosabat

Mazkur anjuman zamirida bir muhim haqiqat mujassam. Ya'ni XXI asr taraqqiyotini ayollar ishtirokisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Chindan ham, bugungi global iqtisodiyotda xotin-qizlarning ta'lim, siyosat, innovatsiya va tadbirkorlikdagi ishtiroki har bir mamlakat raqobatbardoshligini belgilaydigan asosiy omillardan biriga aylanmoqda.

Keyingi yillarda mamlakatimiz tashqi siyosatida "inson kapitali diplomatiyasi" ustuvor yo'nalish sifatida namoyon bo'lmoqda. Buxoro forumi ana shu siyosatning amaliy ifodasi, desak, adashmaymiz. Chunki bu kabi xalqaro darajadagi amaliy muloqotlar Yangi O'zbekistonning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va madaniy imijini yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Forurning asosiy mavzusi "Ayollarga investitsiya – barqaror o'sish asosi" deb nomlandi. Bu orqali bugungi kunda dunyo hamjamiyati



uchun dolzarb bo'lgan qator masalalar muhokama qilindi. Xususan, xotin-qizlarni davlat va jamiyat boshqaruvida keng jalb etish, siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonida ularning ishtirokini kuchaytirish, iqtisodiy mustaqillik va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, ilm-fan hamda ta'lim sohaslarida imkoniyatlarni kengaytirish kabi muhim yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratilayapti.

Shu o'rinda Jahon banki va BMT ma'lumotlariga to'xtalib o'tish joiz. Ushbu nufuzli tashkilotlarning qayd etishicha, xotin-qizlarning mehnat bozoridagi faolligi oshishi o'sishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ayrim tadqiqotlarda gender tenglik to'liq ta'minlangan davlatlar iqtisodiyotida YAIM hajmi o'rtacha

20 – 30 foizgacha o'sganini ko'rish mumkin.

Ana shundan kelib chiqqan holda mamlakatimizda 2026-yil davomida 1,5 million nafar xotin-qizni muntazam daromad bilan ta'minlash rejalashtirilgan. Ulardan 400 ming nafari biznesga jalb etiladi. Ushbu maqsadlar uchun 25 trillion so'mdan ortiq mablag' yo'naltiriladi. Bundan tashqari, 166 ming nafar ayol zamonaviy kasblar va tadbirkorlikka, yana 100 ming nafari esa IT sohasiga o'qitiladi.

Shu bilan birga, ayollar o'rtasida uyda tadbirkorlikni yo'lga qo'yish uchun "Daromadli ayol" dasturini amalga oshirish boshlanadi. Mazkur dastur asosida kasanachilik, asalarichilik va tomorqa xo'jaligi yo'nalishlarida 50 ming nafar ayolning bandligi ta'minlanadi.

Bugun ayol nafaqat ona, uy bekasi, balki davlat va jamiyat boshqaruvida ham faol ishtirok etmoqda. Buni so'nggi yillarda dunyo miqosida, parlamentlarda ham xotin-qizlar ulushi ortib borayotganidan bilish mumkin. Mazkur qizg'in jarayon Markaziy Osiyo davlatlarida ko'zga yaqqol tashlanadi. Xususan, mamlakatimizda parlament va mahalliy kengashlarda ayol deputatlar sonining oshishi, davlat

boshqaruvida rahbar ayollar qatlamining shakllanishi mamlakatda gender siyosati yangi bosqichga ko'tarilganini ko'rsatadi. Jumladan, O'zbekiston Parlamentlararo Ittifoqning "Parlamentdagi ayollar" reytingida 92 pog'ona yuqorilab, 36-o'rinni egalladi. "Gender tenglik va boshqaruv" indeksida mamlakatimiz 103-o'rindan 52-o'ringa ko'tarildi. Jahon bankining "Ayollar, biznes va qonun" indeksida esa 43 pog'onaga yaxshilanib, 48-o'rinni egalladi.

Mutaxassislarning fikricha, ayollarning siyosiy jarayonlardagi ishtiroki ijtimoiy adolat, ta'lim, sog'liqni saqlash va oila siyosatiga oid qarorlarning samaradorligini oshiradi. Shu bois forumda bu mavzudagi tajriba almashinuvi mintaqalar davlatlari uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Buxoroda o'tayotgan Osiyo xotin-qizlarining II forumi shunchaki rasmiy tadbir emas, balki bugungi shiddat bilan kechayotgan global o'zgarishlar sharoitida xotin-qizlarning siyosiy, iqtisodiy va intellektual salohiyatini yangi bosqichga ko'tarishga qaratilgan amaliy muloqot maydonidir.

Malika QODIRXONOVA,
Oliy Majlis Senatining
Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat
va sport masalalari qo'mitasi
a'zosi.

ulkan bozor imkoniyatlari bilan mazkur jarayonda muhim o'rin egallay oladi. Avvalgi bosqichlarda asosiy e'tibor transport yo'nalishlari, savdo va madaniy-gumanitar aloqalarga qaratilgan bo'lsa, endilikda integratsiyaning yangi yo'nalishi – raqamli integratsiya shakllanmoqda. Bu esa kelajakda yagona raqamli makon, intellektual logistika tizimlari, raqamli to'lov infratuzilmalari va innovatsion kooperatsiya mexanizmlarini yuzaga keltirishi mumkin.

Ayniqsa, Markaziy Osiyo bugun Yevroosiyaning muhim raqamli va transport xabi sifatida shakllanib bormoqda. Turkiya davlatlari o'rtasidagi raqamli bog'liqlikning kuchayishi esa butun mintaqalar iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshiradi. Turkiston sammiti kelajak texnologiyalari bo'yicha umumiy strategiya ishlab chiqiladigan muhim intellektual maydon sifatida tarixga kirishi mumkin. Bu turkiy davlatlarning global texnologik jarayonlardagi o'ri va ta'sirini yanada mustahkamlaydi.

Jamila BOBONAZAROVA,
Oliy Majlis Senatining Xalqaro
munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar,
xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari
qo'mitasi a'zosi.

ERKINLIK VA ADOLAT MUHITI –
YUKSALISH POYDEVORI

1 Mamlakatimizdagi o'zgarishlar nafaqat bizni, balki xorijiy davlatlardagi do'stlarimizni ham hayratga solmoqda. Yangi O'zbekistonning har bir go'shasida, turli sohalarda amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlari, iqtisodiy natijalar bugun dunyo hamjamiyati tomonidan tez-tez e'tirof etilishi yangilik bo'lmay qoldi.

Bu o'zgarishlarni, avvalo, hududlar misolida ham yaqqol ko'rish mumkin. Xususan, Surxondaryo viloyati keyingi yillarda mamlakatimizdagi jadal rivojlanayotgan hududlardan biriga aylandi. Bugun viloyatda sanoat, qurilish, xizmat ko'rsatish, tadbirkorlik va investitsiya sohaslarida yuqori o'sish sur'atlari kuzatilmog'ida. Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yil yakunlari bo'yicha Surxondaryo



viloyati yalpi hududiy mahsulotini 106,6 foizga o'sgan, sanoat ishlab chiqarishi 109,3 foizni, xizmatlar sohasi 114,1 foizni tashkil etgan. Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi esa 131,1 foizga yetgani viloyat iqtisodiyotida mutlaqo yangi bosqich boshlanganini ko'rsatadi.

Eng muhimi, bu raqamlar quruq statistika emas. Ular orqada odamlarning hayoti, yangi ish o'rinlari, zamonaviy uy-joylar, yollar, maktab va shifoxonalar, tadbirkorlar uchun yaratilgan imkoniyatlar turibdi. Bugun Termiz, Denov, Sherobod, Boysun va boshqa hududlarda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari Surxondaryoni mutlaqo yangi

qiyofaga olib chiqmoqda.

Qonunchilik palatasining Surxondaryodan saylangan deputati sifatida parlament faoliyatida ishtirok etar ekanman, davlatimiz rahbari boshlagan islohotlar barcha sohani qamrab olayotgani va chuqur kirib borayotganiga har kuni guvoh bo'lmoqdaman. Parlamentda qabul qilinayotgan qonunlar, avvalo, inson manfaatiga, hududlarni rivojlantirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy adolat va ochiqlikni ta'minlashga xizmat qilmoqda. Xalq bilan muloqot va joylardagi muammolarni hal etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Ilgari odamlar yillab yechim topolmagan muammolar bugun ochiq muhokama qilinib, aniq choralar ko'rilmog'ida.

Bugun Yangi O'zbekiston – bu shunchaki shior emas, balki xalq hayotiga kirib kelgan yangi tafakkur, yangi muhit va yangi imkoniyatlar. Ana shu islohotlarning markazida esa inson qadri, adolat va farovonlik g'oyasi turibdi. Bu tamoyillar mamlakatimiz taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiqmoqda, xalqimizning ertangi kunga ishonchini mustahkamlayotir.

Nigora LUTFULLAYEVA,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasi deputati.

TURKIY DAVLATLARNING TARAQQIYOT MODELII

Turkiy davlatlar tashkiloti Davlat rahbarlari kengashining 15-may kuni Qozog'istonning Turkiston shahrida o'tadigan norasmiy sammiti bu gal mutlaqo yangi mazmun va strategik ahamiyat kasb etmoqda. Chunki bugungi dunyoda raqobat endi faqat tabiiy resurslar yoki geosiyosiy ta'sir bilan emas, balki raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt va innovatsion salohiyat bilan ham belgilanmoqda. Shu ma'noda, "Sun'iy intellekt va raqamli rivojlanish" mavzuidagi mazkur sammit turkiy davlatlarning kelajak taraqqiyot modeli qanday bo'lishini belgilab beruvchi muhim siyosiy platforma sifatida baholalanmoqda.

Mushohada

Anjuman o'tadigan joy sifatida Turkiston shahrining tanlanishi ham katta ramziy ma'noga ega. Bu shahar asrlar davomida turkiy sivilizatsiyaning ma'naviy markazlaridan biri bo'lib kelgan. Endi esa bu yerda mushtarak shonli tarixdan baland ruh olib, raqamli kelajak, intellektual iqtisodiyot va texnologik integratsiyani birgalikda qurish masalalari muhokama qilindi.


Shu nuqtayi nazardan, Turkiston sammiti turkiy davlatlarning bu jarayonlarga yakka holda emas, balki umumiy yondashuv va muvofiqlashtirilgan strategiya asosida kirib borayotganini anglatadi. Eng muhimi, mazkur sammit orqali turkiy davlatlar raqamli taraqqiyotni yangi iqtisodiy o'sish drayveri sifatida qo'rayotganini namoyon etmoqda.

Masalan, elektron hukumat, raqamli davlat xizmatlari, transchegaraviy elektron savdo, IT-startaplar ekotizimi va intellektual infratuzilmalarni

rivojlantirish bo'yicha qo'shma dasturlar shakllanishi mumkin. Yana bir muhim jihat – bu inson kapitali masalasi. Sun'iy intellekt sohasida raqobat qilish uchun, avvalo, bilimli yoshlar, zamonaviy ta'lim va innovatsion muhit kerak.

Turkiy davlatlar aynan shu yo'nalishda o'zaro tajriba almashish, qo'shma universitet dasturlari va texnologik platformalarni yaratish orqali katta sinergiyaga erishishi mumkin.

Darhaqiqat, bugun raqamli iqtisodiyot dunyo yalpi iqtisodiy o'sishining asosiy drayverlaridan biriga aylanmoqda. Ekspertlar fikricha, sun'iy intellekt yaqin yillarda global iqtisodiyotga trillionlab dollar qo'shimcha qiymat olib kirishi mumkin. Turkiy davlatlar esa aholisi, geografik joylashuvi va



DEPUTATLAR MUHOKAMALARDA QANDAY MASALALARNI KO'TARDI?



1 Ushbu masala bo'yicha Mudofaa vaziri Sh. Xolmuhamedov ma'ruza qildi. Qayd etilganidek, mamlakatimizda mudofaa va xavfsizlik sohasini tubdan isloh qilish, harbiy xizmat nufuzini oshirish, harbiy xizmatchilar, ularning oila a'zolari ijtimoiy himoyasini kuchaytirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Inson qadrini ulug'lash tamoyili asosida amalga oshirilayotgan islohotlar harbiy xizmatchilar uchun munosib xizmat va yashash sharoitlarini yaratish, ularning huquq hamda manfaatlarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan.

Ushbu qonun loyihasi ham harbiy xizmatchilarning huquqlari, imtiyozlari, kafolatlari hamda ularning majburiyatlari bilan bog'liq munosabatlarni kompleks tartibga solishni nazarda tutadi.

Loyihada O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tarkibiga kiruvchi vazirlik va idoralar harbiy xizmatchilarining huquqiy maqomi, huquq hamda majburiyatlari, javobgarligi, shuningdek, ular va oila a'zolarini ijtimoiy hamda huquqiy himoya qilishning aniq mexanizmlari belgilab berilmoqda.

Hujjatga ko'ra, harbiy xizmatchilar uchun davlat tomonidan kafolatlangan huquqlar, erkinliklar, qonunchilik hujjatlari bilan belgilangan imtiyozlar, cheklovlar, majburiyatlar va javobgarlik majmui harbiy xizmatchilar maqomi, deb belgilanyapti.

Loyihada harbiy xizmatchi maqomiga ega bo'lish va uni bekor qilish tartibi, xizmatni o'tashning o'ziga xos xususiyatlari, xizmat intizomi va xizmat majburiyatlariga doir talablar aniqlashtirilmoqda.

Qonun loyihasida harbiy xizmatchilarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning zamonaviy mexanizmlari alohida o'rin olgan. Jumladan, ularni moddiy rag'batlantirish, sifatli tibbiy xizmat ko'rsatish, uy-joy bilan ta'minlash, majburiy davlat sug'urtasi, pensiya ta'minoti, xizmat vazifasini bajarish chog'ida jarohat olgan yoki halok bo'lgan taqdirda kompensatsiya to'lovlarini amalga oshirish kabi muhim kafolatlar qonun darajasida mustahkamlanmoqda.

Shuningdek, harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoyasini mustahkamlash maqsadida loyihada qator yangi imtiyozlar ham nazarda tutilmoqda. Xususan, harbiy xizmatdan bo'shatilgan va xizmat yillari 20 yildan kam bo'lgan harbiy xizmatchilarga yiliga bir marotaba sanatoriya-kurortlarga 75 foizlik imtiyoz asosida yo'llanma olish imkoniyati yaratilmoqda. Bunda yo'llanma narxining 25 foizi harbiy xizmatchi hisobidan, 75 foizi esa tegishli vazirlik va idoralarning byudjet mablag'lari hisobidan qoplanadi. Shu bilan birga, hujjat bilan harbiy xizmatchilarga yiliga bir marta bazaviy hisoblash miqdorining 100 baravarigacha bo'lgan miqdorda moddiy yordam to'lash imkoniyati yaratilmoqda.

Deputatlar muhokamalar davomida ushbu qonun loyihasi harbiy xizmatchilarning huquqiy maqomini aniq belgilash, ularning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, harbiy xizmat nufuzini yuksaltirish, Vatan himoyachilari va ularning oila a'zolari uchun mustahkam kafolatlar yaratishda muhim ahamiyat kasb etishini alohida ta'kidladi.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi o'qishda qabul qilindi.

**Safarbarlik tayyorgarligi va
safariylik sohasida
yagona huquqiy asos**

Majlisda "Safariylik tayyorgarligi va safariylik to'g'risida"gi qonun loyihasi birinchi o'qishda qizg'in muhokama qilindi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda harbiy xavfsizlikni ta'minlash, mudofaa salohiyatini mustahkamlashga qaratilgan keng ko'lami chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Mazkur qonun loyihasi ham sohada islohotlarning mantiqiy davomi sifatida safariylik tayyorgarligi va safariylik sohasidagi munosabatlarni yagona hamda mukammal huquqiy asosda tartibga solishga qaratilgan.

Loyihada safariylik tayyorgarligi va safariylikning asosiy maqsadlari, prinsiplari va ustuvor yo'nalishlari belgilanmoqda. Shuningdek, davlat organlari, tashkilotlar hamda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining vakolatlari, majburiyatlari aniq nazarda tutilyapti. Hujjatda "safariylik tayyorgarligi" va "safariylik" tushunchalari ilk bor aniq va kompleks huquqiy mazmunda ifodalanganmoqda.

Shu bilan birga, loyihada umumiy yoki qisman safariylikni e'lon qilishning aniq huquqiy mexanizmlari, davlat organlari va tashkilotlarning

vazifalari, iqtisodiyot tarmoqlarini urush davri sharoitida ishlashga o'tkazish tartibi belgilab berilmoqda.

Hujjatda safariylik davrida chaqirilgan fuqarolar uchun ish joyini saqlab qolish, kredit to'lovlarini kechiktirish, yetkazilgan zararlarni kompensatsiya qilish kabi ijtimoiy kafolatlar ham mustahkamlanmoqda.

Muhokamalarda deputatlar qonun loyihasi mamlakat mudofaa salohiyatini yanada oshirish, Qurolli Kuchlarning jangovar va safariylik shayligini mustahkamlash, O'zbekiston Respublikasining suvereniteti, hududiy yaxlitligi va tinchligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etishini qayd etdi.

Qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi o'qishda qabul qilindi.

Markaziy bank faoliyati takomillashtiriladi

Markaziy bank faoliyatini yanada takomillashtirish, uning mustaqilligi va bank tizimi barqarorligini ta'minlashga qaratilgan qonun loyihasi birinchi o'qishda ko'rib chiqildi.

Ushbu hujjat bilan Markaziy bank, uning hududiy bosh boshqarmalari va tasarrufidagi tashkilotlar faoliyatini tekshirish O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati qarori asosida yoki qonunda nazarda tutilgan hollarda amalga oshirilishi nazarda tutilmoqda.

Markaziy bankning normativ-huquqiy hujjat loyihalarini majburiy kelishish hamda kredit tashkilotlari uchun prudensial normativlarni, korporativ boshqaruvni, tavakkalchiliklarni boshqarish tizimiga doir va boshqa talablarni belgilovchi normativ-huquqiy hujjatlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibini soddalashtirish taklif etilmoqda.

Shu bilan birga, qonun loyihasi bilan moliya bozorida yuzaga keladigan favqulodda vaziyatlar sharoitida tekzor huquqiy choralar ko'rish maqsadida Markaziy bankning normativ-huquqiy hujjatlarini kuchga kirishiga oid qoidalar belgilanmoqda.

Deputatlar mazkur qonun loyihasi bank tizimidagi tavakkalchiliklarni samarali boshqarish, nazorat mexanizmlarini kuchaytirish va zamonaviy xalqaro amaliyotlarni joriy etishda muhim ahamiyatga ega ekanini ta'kidladi.

Majlisda qonun loyihasi yuzasidan qator aniqlashtiruvchi savollar berildi.

Savol-javoblardan so'ng mazkur hujjat deputatlar tomonidan qabul qilindi va Senatga yuborildi.

**Ombudsmanning ta'sirchanligi
oshirilmoqda**

Bir guruh deputatlar tashabbusi bilan kiritilgan – Inson huquqlari bo'yicha vakil (ombudsman) faoliyatini yanada samarali tashkil etishga qaratilgan qonun loyihasi birinchi o'qishda muhokama qilindi.

Ushbu hujjat Inson huquqlari bo'yicha vakil faoliyatining ta'sirchanligini hamda mansabdor shaxslarning mas'uliyatini yanada oshirishga qaratilgan.

"O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) to'g'risida"gi Qonunda Ombudsman qo'shimcha vakolatlari va ta'sir choralarini berilgan edi. Xususan, Ombudsman inson huquqlari va erkinliklari to'g'risidagi qonunchilikning buzilishiga yo'l qo'ymaslik haqida tashkilotlarga hamda mansabdor shaxslarga ogohlantirish, taqdimnoma, iltimosnoma va talabnoma kiritish huquqiga ega.

Shu munosabat bilan Ombudsman institutining ushbu yangi vakolat va ta'sir mexanizmlarini amalga oshirish uchun huquqiy asoslar yaratilmoqda.

Qonun loyihasi bilan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 1974-moddasiga Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) kiritgan talabnomalarni mansabdor shaxslar tomonidan ko'rib chiqmasdan qoldirganlik yoki ularni ko'rib chiqish muddatlarini uzrli sabablarisiz buzganlik yoxud ular yuzasidan bila turib qasddan ishonchsiz ma'lumotlarni taqdim etganlik uchun ma'muriy javobgarlik belgilovchi o'zgartirish kiritilmoqda.

**Yekaterina SMESOVA,
Demokratik institutlar va fuqarolik
jamiyatini rivojlantirish masalalari
qo'mitasi a'zosi:**

– Qonun loyihasi bugungi kunda dolzarb bo'lib, unga kiritilayotgan o'zgartirishlar inson huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini mustahkamlashga, shuningdek, davlat organlarining va ular mansabdor shaxslarining



mas'uliyatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan moddama-modda muhokama etildi va ikkinchi o'qishda qabul qilindi.

**Bolalar huquqlarini himoya qilish
tizimi kengaymoqda**

Bir guruh deputatlar tashabbusi bilan kiritilgan – Bola huquqlari bo'yicha vakil (Bolalar ombudsmani) faoliyatini yanada samarali tashkil etishga qaratilgan qonun loyihasi birinchi o'qishda ko'rib chiqildi.

Ushbu hujjat bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish mexanizmlarini yanada mustahkamlash, Bola huquqlari bo'yicha vakilning faoliyatini yanada samarali tashkil etishni nazarda tutadi.

Qonun loyihasi bilan huquqni muhofaza qiluvchi organlar bolaga qarshi jinoyatlar to'g'risida ma'lumotlar olgan taqdirda jinoyat ishini qo'zg'atish yoki uni rad etish to'g'risida qaror qabul qilganda, bu haqda Bolalar ombudsmanini xabardor qilishi nazarda tutilmoqda. Bu kelgusida sud jarayonlarida, jumladan, voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlarni yuritishda bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini to'laqonli himoyalashga xizmat qiladi.

Bola huquqlari bo'yicha vakilning parlament nazoratini amalga oshirish borasidagi vakolatlari ham belgilanib, bola manfaatlarini ko'zlab fuqarolik ishlari bo'yicha hamda ma'muriy sudlarga arizalar, shikoyatlar va da'volar bilan murojaat etishda uni davlat bojidan ozod qilish taklif etilmoqda.

Loyiha bilan vakilning qonuniy faoliyatiga to'sqinlik qilganlik uchun javobgarlik belgilash, uni saylash, daxlsizlik huquqidan mahrum etish, shuningdek, u tomonidan parlamentga taqdim etiladigan ma'ruzani eshitish masalalari tartibga solinmoqda.

Bundan tashqari, bolalarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga taalluqli masalalarga doir normativ-huquqiy hujjat loyihalari Bola huquqlari bo'yicha vakil (Bolalar ombudsmani) bilan majburiy kelishilishiga oid qoidalar belgilanmoqda.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan moddama-modda muhokama etildi va ikkinchi o'qishda qabul qilindi.

**Davlat fuqarolik xizmatchisining
xorijda o'qish davrida lavozimi
saqlab qolinadi**

"Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga davlat fuqarolik xizmatchisining kasbiy malakasini oshirish kafolatlarini belgilashga qaratilgan qo'shimcha kiritish haqida"gi qonun loyihasi birinchi o'qishda obdan muhokama qilindi.

Ta'kidlanganidek, amaldagi qonunchilikda



davlat fuqarolik xizmatchisi xorijiy ta'lim muassasalarida o'qish uchun grant yutgan taqdirda, uning ish joyi va lavozimini saqlash bo'yicha huquqiy kafolatlar mavjud emas.

Ushbu hujjat davlat fuqarolik xizmatchilarini yanada qo'llab-quvvatlash, ularga keng imkoniyatlar yaratish, davlat organlari hamda tashkilotlarida professional va salohiyatli kadrlar qatlamini shakllantirishni nazarda tutadi.

Qonun loyihasi bilan davlat xizmatchisi nufuzli xorijiy ta'lim muassasasiga magistratura yoki doktorantura o'qish bo'yicha grant yutganda, ish beruvchining yozma roziligi asosida uning ish o'rni (lavozimi) saqlanishi taklif etilmoqda.

Ish beruvchi tomonidan rozilik berishda o'quv dasturining yo'nalishi ushbu davlat organi faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lishini inobatga olish nazarda tutilyapti.

Loyihada o'quv dasturi yakunlangandan so'ng davlat fuqarolik xizmatchisi zimmasiga tegishli davlat organi tizimida xorijda tahsil olish davriga teng muddatga ishlab berish majburiyati ham yuklanmoqda.

Shuningdek, davlat fuqarolik xizmatchisining xorijda o'qish davri uning mehnat stajiga qo'shib hisoblanishi, ko'p yillik xizmati uchun har oylik ustama belgilashda inobatga olinishi nazarda tutilmoqda.

Majlisda qonun loyihasi qizg'in muhokamalarga sabab bo'ldi va qator savollar ko'tarildi.

Zafar XUDOYBERDIYEV,**O'ZLiDeP fraksiyasi a'zosi:**

– Qonun loyihasida davlat fuqarolik xizmatchisi ish beruvchining roziligi bilan tahsil olishi mumkin

bo'lgan xalqaro e'tirof etilgan nufuzli ta'lim muassasalari Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanishi ko'zda tutilmoqda. Agar xalqaro e'tirof etilgan nufuzli ta'lim muassasasi sifatida ro'yxatga kirgan ta'lim muassasasining filiali O'zbekistonda faoliyat ko'rsatsa, davlat fuqarolik xizmatchisi xalqaro e'tirof etilgan nufuzli ta'lim muassasasida tahsil olish uchun, albatta, xorijga borib o'qishi kerakmi yoki o'sha xorijiy oliy ta'lim muassasasining O'zbekistonda joylashgan filiallarida ham o'qisa, loyiha bilan nazarda tutilayotgan kafolatlarga ega bo'ladimi?

**Nodira JONIBEKOVA,****"Adolat" SDP fraksiyasi a'zosi:**

– Ushbu qonun loyihasidagi deyarli barcha masalalar Vazirlar Mahkamasi qarorida belgilanishi ko'rsatilmoqda. Shuningdek, xorijda o'qib qaytgan xodimga ishlab berish majburiyati yuklatilmoqda. Masalaga huquqiy jihatdan yondashadigan bo'lsak, xodimning huquqlari yoki ularga beriladigan majburiyatlarni yuklash Mehnat kodeksi asosida amalga oshirilishi shart. Shu nuqtayi nazardan savol tug'iladi: Vazirlar Mahkamasi qarorida belgilangan shartlardan kelib chiqib, xodimga ishlab berish majburiyatini yuklash xodimning huquqlariga, shuningdek, amaldagi Mehnat kodeksi normalariga zid bo'lib qolmaganmi?

Qonun tashabbuskorlari mazkur savollarga atroflicha tushuntirish berib, qonun loyihasini ikkinchi o'qishga tayyorlashda ko'tarilgan masalalarga e'tibor qaratishlarini ma'lum qildi. Muhokamalardan so'ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi o'qishda qabul qilindi.

**Ijtimoiy yordam manzilligi
ta'minlanadi**

Majlisda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasining muhokamasi ham qizg'in kechdi.

Ta'kidlanganidek, keyingi yillarda mamlakatimizda aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, davlat tomonidan fuqarolarga ijtimoiy xizmat ko'rsatish ko'lami va turlarini kengaytirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Qonun loyihasi bilan nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini xalqaro standartlar asosida yanada mustahkamlash, ularning odil sudlovdan to'liq va teng foydalanishini ta'minlash,

ijtimoiy himoya tizimini manzilli va samarali tashkil etish nazarda tutilmoqda.

Xususan, loyihada "Ijtimoiy himoya yagona reestri" va "Kambag'al oilalar reestri" negizida shakllantirilgan "Ijtimoiy reestr"ga kiritilgan oilalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning yagona mexanizmini joriy qilish taklif etilmoqda.

Unga muvofiq, ijtimoiy xizmatlar, nafaqalar, imtiyozlar va boshqa kafolatlar Ijtimoiy reestrga kiritilgan oilalarga taqdim qilinadi. Bundan tashqari, Soliq kodeksiga nogironligi bo'lgan shaxslarni ish bilan ta'minlashni rag'batlantiruvchi qator imtiyozlar kiritilmoqda. Jumladan, I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslarni ishga qabul qilgan yuridik shaxslar uchun ijtimoiy soliq stavkasi 1 foiz etib belgilanmoqda. Nogironligi bo'lgan xodimlarga yordam ko'rsatish bilan bog'liq ayrim xarajatlarni soliq bazasidan chegirish nazarda tutilyapti.

Ya'ni ota-ona farzandi uchun nodavlat bog'cha va maktab ta'limi to'lovleri bo'yicha daromad solig'idan beriladigan imtiyozlar o'zgarib parvarishiga muhtoj voyaga yetmagan shaxslarning oila a'zolari uchun to'lanadigan to'lovlarga ham tatbiq etiladi.

Shuningdek, nogironligi bo'lgan shaxslar mehnat qilayotgan korxonalar uchun mol-mulk va yer soligi bo'yicha qo'shimcha yengilliklar berish taklif qilinmoqda.

Ijtimoiy himoya milliy agentligining hududiy bo'linalariga ortiqcha to'langan nafaqalarni undirish yuzasidan sudga murojaat etishda davlat bojini to'lashdan ozod qilish belgilanmoqda.

Majlisda qonun loyihasi yuzasidan qator savollar ko'tarildi.

**Saydullo AZIMOV,
O'ZLiDeP fraksiyasi a'zosi:**

– Mamlakatimizda nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini himoya qilish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar juda muhim va jadallik bilan olib borilmoqda. Asosiy maqsad – nogironligi bo'lgan shaxslarni jamiyatning boshqa a'zolari bilan teng munosabatda bo'lishini ta'minlash, ularning manfaatlarini himoya qilishdan iborat. Qonun loyihasida Jinoyat kodeksiga



kiritilayotgan ayrim normalarda "bevosita yoki bilvosita afzallik berish" tushunchasi keltirilgani amalda nogironligi bo'lgan shaxslarga berilayotgan imtiyoz va yengilliklar bilan qanday uyg'unlashishi masalasiga aniqlik kiritishni talab etadi. Negaki, bugun amaldagi tizimda nogironligi bo'lgan shaxslarga qator imtiyozlar berilmoqda. Etarga ushbu imtiyozlar "afzallik berish" sifatida baholanib, huquqiy ziddiyat keltirib chiqarmaydimi?

Qonun tashabbuskorlari bu bo'yicha atroflicha izoh berib o'tishdi. Qayd etilganidek, qonun loyihasining qabul qilinishi bilan ijtimoiy yordam va xizmatlarning manzilligi ta'minlanadi. Aholining ijtimoiy ehtiyojmand qatlamlari uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratiladi.

Muhokamalardan so'ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi o'qishda qabul qilindi.

**Konstitutsiyaviy qonun loyihasi
ko'rib chiqildi**

Deputatlar mamlakat investitsiya muhitini yanada yaxshilash, xalqaro kapitalni jalb qilish, zamonaviy moliya infratuzilmasini shakllantirishga qaratilgan "Toshkent xalqaro moliya markazi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonun loyihasini birinchi o'qishda ko'rib chiqdi.

Ushbu hujjat mamlakatda raqobatbardosh kapital bozorini rivojlantirish, investitsiya oqimini kengaytirish va O'zbekistonda mintaqaviy moliyaviy xab sifatida shakllantirish uchun muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Qonun loyihasida moliya markazining huquqiy maqomi, faoliyat tamoyillari, boshqaruv tizimi, vakolatlari va markaz hududida amal qiladigan maxsus huquqiy rejim aniq belgilangan. Xususan, markaz hududida xalqaro investorlar uchun huquqiy barqarorlik va ishonchli sud himoyasini ta'minlashga qaratilgan qoidalar kiritilmoqda.

Muhokama jarayonida dunyoning yetakchi moliya markazlari – Dubay xalqaro moliya markazi (DIFC), Ostona xalqaro moliya markazi (AIFC) va Singapur tajribasi o'rganilgani qayd etildi. Qonun loyihasi bilan Toshkent xalqaro moliya markazining institutsional tuzilmasi ham belgilanyapti.

Shuningdek, markaz ma'muriyati, Toshkent moliyaviy xizmatlar boshqarmasi va Toshkent xalqaro tijorat sudining huquqiy maqomi mustahkamlanmoqda.

Qayd etilganidek, Toshkent moliyaviy xizmatlar boshqarmasi litsenziyalash, nazorat qilish va ta'sir choralarini qo'llash vakolatiga ega bo'ladi. Toshkent xalqaro tijorat sudi esa markaz ishtirokchilari o'rtasidagi nizolarni mustaqil ravishda ko'rib chiqadi.

Deputatlar markaz qatnashchilari uchun yaratilayotgan imkoniyatlarga ham alohida o'txaldi. Loyihada markaz ishtirokchilari va ularning xodimlariga xorijiy valyutalarda hisob-kitob yuritish, chet ellik mutaxassislarni ishga qabul qilish, besh yilgacha amalda bo'ladigan maxsus vizalar olish huquqi berilishi nazarda tutilmoqda. Shu bilan birga, markaz hududida soliq va bojxona imtiyozlari joriy etilishi belgilangan.

Ushbu Konstitutsiyaviy qonun loyihasining qabul qilinishi Konstitutsiya hamda qator qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishni taqozo etadi. Jumladan, Konstitutsiyaning 15-moddasiga kiritilayotgan qo'shimchaga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi hududida yagona huquqiy makon saqlangan holda alohida hududlarda qonun asosida maxsus huquqiy rejim o'rnatish imkoniyati belgilanmoqda. Konstitutsiyaning 131-moddasiga kiritilayotgan qo'shimcha bilan esa maxsus huquqiy rejim amal qiladigan hududlarda ixtisoslashtirilgan sudlar tashkil etilishi mumkinligi nazarda tutilmoqda.

Shu bilan birga, 134-moddaga kiritilayotgan o'zgartirish bilan ayrim maxsus holatlarda sud yurisdiksiyasi va sud ishlarini yuritish tartibi qonun bilan alohida belgilanishi mumkinligi mustahkamlanmoqda.

Majlisda deputatlar qonun loyihasini yanada takomillashtirish bo'yicha qator takliflar bildirdi. Xususan, investorlar huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini kuchaytirish, moliyaviy xavfsizlik kafolatlarini aniq belgilash hamda markaz faoliyatining milliy iqtisodiyotga ta'sirini samarali muvofiqlashtirish zarurligi qayd etildi.

Qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi o'qishda qabul qilindi.

**Oliy Majlis Qonunchilik palatasi
Matbuot xizmati.**



Yangi investitsiyalarning muhim mezonlari

Farg'ona vodiysi qadimdan savdo karvonlari izlari qolgan, hunarmand qo'llari mo'jiza yaratgan, tarix va taraqqiyot bir-biri bilan uyg'unlashgan maskan sifatida e'tirof etib kelinadi. Bu zaminda atlas jilosi, kulol sopolining nafisligi va qadim shaharlar nafasi asrlar davomida Sharq tamaddunining yorqin timsoliga aylangan. Qo'qonning ulug'vor saroylari, Marg'ilonning ipak matolari, Rishtonning moviy naqshlari bugun ham vodiy ruhi betakrorligini dunyoga namoyon etmoqda.



Bugungi globallashuv davrida esa hududlarning nufuzi nafaqat tarixiy merosi, balki iqtisodiy barqarorligi va xalqaro moliyaviy maydondagi ishonchiligi bilan ham belgilanmoqda. Endilikda xalqaro reytinglar hududlarning ertangi taraqqiyotini belgilovchi muhim mezonlardan biriga aylandi.

Ana shunday jarayonda Farg'ona viloyatining "Fitch Ratings" xalqaro agentligi tomonidan "BB-" darajasidagi "Barqaror" reyting bilan baholanishi viloyatning iqtisodiy salohiyati, moliyaviy intizom va investitsion jozibadorligi xalqaro miqyosda tan olinganidan dalolat beradi. Mazkur reyting oddiy iqtisodiy ko'rsatkich emas, aksincha, Farg'onaning ertangi kuniga bildirilgan ishonch, uning taraqqiyot yo'liga berilgan xalqaro e'tirofdir. Ayniqsa, turizm, xizmatlar sohasi hamda yirik investitsiyaviy loyihalar rivojlanayotgan bugungi davrda ushbu barqarorlik viloyatni Markaziy Osiyoning istiqbolli iqtisodiy va turistik markazlaridan biriga aylantirish uchun mustahkam poydevor qo'yilayotganidan dalolat beradi.

Joriy yil 7-may kuni "Fitch Ratings" xalqaro reyting agentligi tomonidan Farg'ona viloyatiga "VV-" darajasidagi "Barqaror" reyting berilgani keng jamoatchilik va iqtisodiy doiralarda katta qiziqish uyg'otdi. Bu reyting viloyatning moliyaviy boshqaruvi, fiskal barqarorligi va iqtisodiy salohiyati xalqaro mezonlar asosida e'tirof etilganini anglatadi.

Aslida, kredit reytingini ham oddiy statistik ko'rsatkich deb bo'lmaydi. U investor uchun hududning "iqtisodiy pasporti" vazifasini bajaradi. Reyting qanchalik barqaror bo'lsa, hududga nisbatan ishonch shunchalik ortadi. Bu esa yangi investitsiyalar, yirik loyihalar va zamonaviy infratuzilma uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Bugungi Farg'ona aynan ana shunday ishonch makoniga aylanmoqda. Viloyatning iqtisodiy salohiyati, aholi soni, sanoat ishlab chiqarishi, qishloq xo'jaligi va ayniqsa, xizmatlar sektoridagi o'sish sur'atlari xalqaro moliyaviy institutlar e'tiborini tortmoqda. So'nggi yillarda turizmning iqtisodiyotdagi ulushi oshib borayotgani esa Farg'onaning yangi iqtisodiy qiyofasini shakllantiryapti.

Farg'ona vodiysi qadimiy tarix, boy madaniyat va noyob hunarmandchilik an'analari bilan azaldan sayyohlarni o'ziga jalb qilib kelgan. Qo'qondagi Xudoyorxon saroyi, Marg'ilonning atlas va ipakchilik maktabi, Rishtonning mashhur kulolchilik an'analari, Shohimardon hamda Vodilining betakror tabiati bugun nafaqat milliy, balki xalqaro turizmning muhim maskanlariga aylani

bormoqda. Mutaxassislar ta'kidlashicha, xalqaro reytingning mavjudligi aynan turizm sohasiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda muhim omil hisoblanadi. Chunki investor, avvalo, hududning moliyaviy xavfsizligi va uzoq muddatli barqarorligiga baho beradi. "VV-/Barqaror" reytingi esa Farg'onada yirik loyihalarni amalga oshirish uchun ishonchli muhit mavjudligini ko'rsatayotir.

Buning yorqin misollaridan biri – Marg'ilon shahrida bunyod etilayotgan "Burhoniddin Marg'ioniy" ilmiy-ma'rifiy va turistik majmuasidir. Umumiy qiymati 1,7 trillion so'mlik ushbu loyiha "shahar ichida shahar" konsepsiyasi asosida tashkil qilinmoqda. Majmuada mehmonxonalar, hunarmandchilik markazlari, milliy bozor, karvonsaroy va zamonaviy savdo hududlari barpo etilishi rejalashtirilgan. Mazkur loyiha nafaqat turizm, balki hudud iqtisodiyoti uchun ham katta ahamiyatga ega. Kutilayotgan natijalarga ko'ra, majmuaga yiliga 200 – 250 ming xorijlik sayyohlarni qabul qiladi, qariyb 2000 ta ish o'rinlari yaratiladi va byudjetga milliardlab so'm daromad olib kiradi.

Eng muhimi, bunday loyihalar iqtisodiyotda multiplikativ samara beradi. Yangi mehmonxonalar, transport xizmatlari, kafelar, hunarmandchilik do'konlari va servis obyektlari paydo bo'ladi. Mahalliy aholi daromadi ortadi, yoshlar va xotin-qizlar bandligi oshadi. Farg'ona bugun iqtisodiy diversifikatsiya yo'lidan bormoqda. Avvallari, asosan, agrar sanoat hududi sifatida tanilgan viloyatda endi xizmatlar va turizm sohasi iqtisodiyotning muhim drayveriga aylanmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, xizmatlar sektorining hududiy yalpi mahsulotdagi ulushi yildan-yilga ortib bormoqda. Bu esa iqtisodiyotning zamonaviy modelga o'tayotganidan dalolat beradi.

Yana bir muhim jihat – xalqaro reytingning "langar effekti" yaratilishi. Ya'ni yirik investitsion loyiha hududga nisbatan umumiy ishonchni oshirib, uning atrofida o'nlab yangi biznes tashabbuslari paydo bo'lishiga zamin yaratadi. Bugungi Farg'onada aynan shunday jarayon kuzatilmoqda.

Kelgusi yillarda viloyatda yuzlab million dollarlik yangi loyihalar amalga oshirilishi, xalqaro turistlar oqimi keskin ortishi va Farg'onaning Markaziy Osiyodagi yirik turistik hamda investitsiyaviy markazlardan biriga aylanishi kutilmoqda.

Go'zal XONKELDIYEVA, Farg'ona davlat universiteti Iqtisodiyot fakulteti dekani, iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

“Boshim poyingda, Vatan...”

Vatanga cheksiz muhabbat tuyg'usi ufurib turgan ushbu yoniq misra muallifi O'zbekiston xalq shoiri Halima Xudoyberdiyeva agar hayot bo'lganida ayni kunlarda umrining yetmish to'qqizinchi bahorini kutib olayotgan bo'lardi...

Yosh Halimadagi she'riy qobiliyatni ilk bor taniqli adib, davlat va jamoat arbobi, O'zbekistonning ko'p yillik birinchi rahbari bo'lib ishlagan Sharof Rashidov payqagan va bag'ridayo ustoz viloyat mas'ullariga bu qizaloqqa "ko'z-quloq" bo'lishni tayinlagan. Keyin o'tgan asrning 70-yillari sharoitida qishloqlik qizning shaharga ilm izlab borish mashaqqatlari boshlanadi – Toshkent, so'ng Moskvadagi Adabiyot institutidagi saboqlar...

Sog'inch

Hali talabalik chog'i kitobi chiqqan omadli ijodkorlar bor bo'lsa, shulardan bir u edi. Iste'dodi va tabiatidagi butunlik uning omad pillapoyalardan tez ko'tarilishini, elga tanilishini ta'minlaydi.

Mustaqillikning dastlabki yillari O'zbekiston xalq shoiri edi u. Uzoq yillar "Saodat" jurnali jamoasini boshqardi. Xotin-qizlar qo'mitasiga rahbar bo'ldi.

Va ittifoqo, umrining ma'lum bir davrida u yakkalanib, bir paytlari gavjum bo'lgan yon-atrofida hamfikir, hamdard kishi qolmagandek bo'ldi go'yo.

Chindan ham, u yolg'izmidi, degan savol tug'iladi hozir. Faqat, yo'q, deyishga shoshilmaylik.

Inson ruhan yolg'iz bo'lishni istaydigan, orzu qiladigan onlar bo'ladi. Yolg'izlik toblab qalbi kuchga to'lgan, ta'bir joiz bo'lsa, sherga aylanayotgan odamning, boz ustiga u shoir bo'lsa, ikki qo'li burgutning haybatli qanotidek keng yoyilib, samoga ko'tarilishini tasavvur qilganmisiz?! Inson bunday kezlar yuksak-yuksaklarga uchishi, ko'tarilishi bor gap.

Xo'sh, shoir chekinishga chog'langan uzlat, yolg'izlik o'zi nima edi? Ehtimol, birinchidan, ikkinchidan, uchinchidan... deya kimdir sharhlab berishi mumkin bu holatni. Lekin bu savolga eng to'g'ri javob – shoimning she'rlari. Halima opa haqida hech kim uning she'rlaricha ochiq, batafsil ma'lumot bera olmasa kerak.

Ayonik, yolg'izlikni hech kim o'z ixtiyori bilan tanlamaydi. Uning bozori ham yo'q. "Bunday baxt"ni qachonlardir eng yaqin bo'lgan insonlar taqdim etadi kishiga, afsuski...

E'tibor berib qarasangiz, "Yolg'izlik" so'zida "lshq" so'ziga yaqin qondoshlik bordek tuyuladi. Ishq – ruh va jismga chirmashgan bir dardki, kun kelib sohibidan qurbonlik talab qiladi. Yolg'izlik ana shu qurbonlikning achchiq mevasi.

Ehtimol, u qachonlardir tanho qolishini his qilgan, sezgandir. Axir u shunchaki duch kelgan tomon gandraklab ketayotgan qandaydir oddiy yo'lovchi emas edi. O'zigaacha davruga taratgan Movarounnahr ijodkorlarining mungli ovozlarga mardonalik baxsh eta olgan, shoirlikni bir maqom baland ko'targan, millat dardini she'rlarida baralla kuylagan katta shoir edi.

"Armonim bo'lmadi, magarki Mavlonodek bir do'st to'pa olam edi", deya orzu qiladi bir she'rda u. Rumiyelek do'st topishni orzu qilgan oshiqning xuddi tabrizlik Shamsdek hech ikkilanmay kundaga qo'yishga loyiq boshi ham bo'lishi kerak emasmi?... Halima opa bu savdo bahosini yaxshi biladigan mard xaridor edi.

Qalbidagi ayovsiz tug'yon olovli qanotlari uzra uni yuksaklikning eng baland cho'qqisiga olib chiqadi. U oshiqlik maqomiga allaqachon ko'tarilib bo'lgan edi...

Mangu tunmas. Oftob – bir onlig' bo'lsam, Armonim yo'q. Xarob yo shonlig' bo'lsam. Hazrat Rumiyeq bir jon do'st topsaydim, Mayli unga Shamsday qurbonlig' bo'lsam... Azaldan uning fe'li, ruhiyatida isyonga o'xshash g'alayon bor edi. Bu uning she'rlarida

bo'y ko'rsatib turardi. Adabiyot bilimdonlari, adab va fasohat ahli buni vaqtda ilg'ab, undan umid qilardi. Yillar o'tib, Halima Xudoyberdiyeva nafaqat bu ishonchni oqladi, balki ustoz munaqqid Ozod Sharafiddinov e'tirof etganidek, "haqiqat va adolat jarchisi" o'laroq xalqimiz mehriini qozondi.

Uning ayol zotiga xos (mayin-muloyimlik) bo'lmagan o'ktam ovozi jamiki ozod qalbli odamlarning ichki chaqirig'idek yangradi.

Ha, "Dorilamon kunlar" mujdasini ilk bor u aytgandi...

Oshiqlaring poyingga gul otib ham bo'ldi, Xilvatlarda labingdan bol totib ham bo'ldi Va bu haqda kimlargadir sotib ham bo'ldi, Sen baribir muqaddassan, Muqaddas ayol!

– deya baralla aytgan ham u edi. Va buni unga qo'shilib butun el – millat birgalikda aytdi. Hali ham aytib keladi, bundan keyin ham aytdi...

Uning o'zbek onalari nomidan bitgan mana bu tilaklari ham aslo eskirmaydi, to hayot bor ekan, yashaydigan da'vat, vasiyat bo'lib qolaveradi:

Botirlar o'tgan Vatandan Botirlar chiqsin, Xudo. Anglasinlar, bor sinoat Bor sirlar chiqsin, Xudo. Ulug' onalardan meros Martabamiz onalik. Biz tebratgan beshiklardan Boburlar chiqsin, Xudo!

Olamning yaratilishi haqidagi bitiklarda Odamning zuvalasi uchun Yer yuzining turli burchaklaridan bir siqimdan tuproq olinadi va ushbu tuproq uzra naqd qirq yil, shundan 39 yil g'am-tashvish, bir yil sevinch yomg'iri yog'di, deyiladi. Halima opaning she'rlarida ana shu ibtidoada inson vujudi, taqdiriga ilohiy yomg'ir ila qorishib ketgan, bor bo'lgan beoromlikni yaqqol his qilasi.

Sirtim shoyon, ich-xo'riniq, tutunligim ko'r, G'ujg'on yulduzlar-da, siniq bir tunligim ko'r. Xarsang tegib ming bo'lakka bo'lingan jomman, Ammo yurganimda tiklik, butunligim ko'r...

Bu – o'zbek, Sharq, musulmon ayolining timsoli. U sinmaydi. Yuragi doim alla, hayot qo'shig'ini kuylab turadi.

Halima opa she'rlarida toshi og'ir bosadigan so'zlarni saralab-saralab, o'rni-o'rni bilan ishlatadi. Sirti shoyon, ichi xo'riniqqa to'la, dunyosi qop-qorong'i, ammo qaddi tik. "Butunligimni ko'ri!" deya yotgan ayol – Ona paydo bo'ladi ko'z o'ngingizda.

She'r, shoir shunday bo'lishi kerak emasmi?! Halima Xudoyberdiyeva ijodida yuraklarni allalovchi sokinlik yo'q. Asarlarida uning vujudi, ruhi, jismu jonida ibtidoadig o'sha qiray yillik "yomg'ir" alomatlari mavjudligini, jo'sh yaratgani "shiviri"ni go'yo eshitib turasiz. Bu azaliy yomg'ir sadolari odam bolasining o'zi haqidagi qo'shiq, bu qo'shiqni kuylamay, tinglamay bo'ladimi?



Bunday qo'shiqlarni kim yaratadi? Albatta, chin shoirlar. Halima Xudoyberdiyeva ana shunday asl shoirilarning oldingi saflarida turadi.

Shubhasiz, insonni g'am tarbiyalaydi. Ammo shoir, avvalo, inson o'laroq bu dard oldida taslim bo'lgisi kelmaydi. "Dorilamon kunlar..." kelganda og'ir damlarni unutadi. "Bu kunlarga yetganlar bor, yetmaganlar bor..." deya shukrona keltiradi. Aslida ham Odam bolasining umri g'am-tashvish va dorilamon kunlar orasida kechadi...

Halima Xudoyberdiyevaning qismati she'rlarida aks etib turadi. Shoir aytganidek, she'rlari – uning qissago'yi... Shoir hech ikkilanmay "Mavloni Jaloliddin Rumiyelek bir do'st bo'lsaydi" deyidigan darajaga yetmog'i uchun qancha yo'l bosib kelganini bilasizmi? Buni ham uning ijodi "fosh" qilib turadi.

O'tgan asrning 60-yillarida, hali talabalik davrida chiqqan "Ilik muhabbat" kitobidan tortib "Oq olmalar", "Chaman", "Suyanch tog'larim", "Bobo quyosh", "Issiq qor", "Sadoqat", "Muqaddas ayol", "Hurlik o'ti", "Bu kunlarga yetganlar bor", "To'marisning aytgani", "Yo'ldadirman", "Buyuk qushlar", "Ososiysha sham" kitoblariga kirgan she'rlari Halima opani she'rdan she'rga o'sib, ulg'aygan favqulodda iste'dod sohibi ekanini sharhlab turadi. Ko'p shoirilarning ilk she'ri qaysi, balog'at yoshida bitganlari qaysi ekanini adabiy sinchilar ham ajratishga ojizlik qilishi mumkin, ammo Halima opaning she'rlarini bir hovuch dondek sochib yuborib, keyin yig'adigan she'rxon hech ikkilanmay ularni xronologiyasi bo'yicha tartib bilan tizib chiqishi mumkin. Sababi esa ayon. Bu asarlarda aniq yuksalish nuqtalari – dinamika bor.

"Turk", "Turkiston" kabi bir zamonlar moziy sandig'iga ulqotirilgan aziz so'zlar shoir ijodida "hayot"ga qaytganini ko'ramiz. Uning "Turkiston tomonlarda" she'ri millat bolalari ruhini ko'taradigan madhiyadek yangraydi:

Endi turmoq onidir, ey endi tiklanmoq oni, Endi dunyo ko'rajak turkiy el qalqanini. Endi bolalariga bala kelsa, qalqoni – Sohbiqiron tug'i bo

Turkiston tomonlarda...

"Turk dunyosini o'nglovchilar" nomli she'rda esa shoir qalbini o'rtagan dardlarni tuyasiz. She'r o'ziga xos achchiq so'zlar bilan boshlanadi:

Xijolatman, ba'zan shunday xijolatli onlar kelar, Bo'liq don deb topganlarim xas-xashak, somon kelar. Burgutlarni sulton qush deb, samolardan qidirsam, Ular yerda go'ng tiktilab, tumshuqlari qon kelar...

Turkiy dunyo parokandaligi haqida o'kinib yozgan shoir she'rning keyingi satrlarida yorug' niyatlar, bashoratlar qiladi:

EZGU QALBLAR TASHABBUSI

Olotlik bir guruh faol kitobxon o'g'il-qizlarga Yoshlar ishlari agentligi tomonidan Toshkent shahriga bir haftalik sayohat va dam olish yo'llanmasi topshirildi. Bu tumandagi Muxtor mahallasida barpo etilgan zamonaviy kutubxonaning ochilish marosimiga to'planganlarni behad xursand qildi.

Ma'naviyat

Chamasi uch yilcha muqaddam Olot tumandagi Muxtor mahallasida yashovchi Shahnoza Navro'zova bu chekka go'shada kutubxona ochish tashabbuskori bo'lgandi. Toshkent davlat pedagogika universiteti, keyin Turkiyada tahsil olgan bu tinib-tinchimas qizning tuman hokimligi va boshqa xayrixoh tashkilotlar ko'magida tashkil etgan ziyo maskanidagi kitoblar qishq muddatda yon-atrofdagi istiqomat qiluvchi 400 dan ziyod xonadonlarga kirib bordi. E'tiborlisi, mahallada ma'naviy muhit yaxshilangani, u jinoyatchilikdan xoli hududga aylangani, mahalla yoshlarining

o'qib-o'rganishga, shaxmat va shashka bilan shug'ullanishga ishtiyoqlari oshgani kuzatildi. Shular inobatga olingan holda mahallada loyiha qiymati 650 million so'm bo'lgan zamonaviy kutubxona binosi qurilib, foydalanishga topshirildi.

– Bundan benihoya xursandmiz, – deydi Shahnoza Navro'zova. – Chunki endilikda bolalar va yoshlar uchun alohida o'quv zallari, zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan xonalarimiz mavjud. Kiyoib fondimiz boyib bormoqda. Bu loyiha yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga davlat siyosati darajasida qaralayotganidan dalolat beradi.

“Xalq so'zi”.

Premyera

Muqimiy nomidagi O'zbekiston davlat akademik musiqali drama teatrida "Parij – 2024" Olimpiya o'yinlari chempioni Diyora Keldiyorovanning shonli g'alabasi tarixiga bag'ishlangan "Tongni kulib qarshi ol" spektaklining premyerasi o'tkazildi.

“TONGNI KULIB QARSHI OL”

Mazkur asarda irodali va qat'iyatli o'zbek qizi D. Keldiyorovanning bolalik chog'ida to Olimpiada shohsupasigacha bo'lgan ibratli hayoti tasvirlanadi. Spektaklda o'z orzu-umidlari ushalishi yo'lida har qanday mashaqqatga dosh bera olgan matonatli zamonadoshimiz obrazi yorqin sahna ko'rinishlari orqali ochib berilgan.

– Jamoamiz tomonidan ilk marotaba dunyo e'tiboriga

tushgan sportchi qiz hayoti haqida spektakl yaratish biz uchun katta faxr bag'ishlaydi, – deydi teatr bosh rejissyori Doston Haqberdiyev. – Kelajakda Diyoraxonga bundan-da yorqin g'alabalarga erishib, xalqimizni xursand qilishda davom etishiga tilakdoshmiz.

Prezidentimizning "Teatrlarning jamiat madaniy hayotidagi ahamiyatini oshirish va ular faoliyatini yanada qo'llab-

quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ijrosi doirasida sahnalashtirilgan mazkur asar Madaniyat va Sport vazirligi hamkorligida davlat buyurtmasi asosida amalga oshirildi. Premyera tomoshabinlar tomonidan iliq kutib olindi. Uning mazmuni, sahna yechimlari va sportchi matonatini aks ettirgan lavhalar muxlislarda katta taassurot qoldirdi.

“Xalq so'zi”.



O'zbekiston Milliy kino san'ati saroyida O'zbekiston xalq yozuvchisi Xayriddin Sultonning “Osmoni falaklarda. Osmon qiroli” badiiy filmining premyerasi bo'lib o'tdi.

Xalq so'zi

Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-542. 23 409 nusxada bosildi. Hajmi – 2 tabog. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:

Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va mullifiga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun ohumani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyatga kompyuter markazida teriladi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahilalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:

100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasini, 55-uy.
Navbatcheshi muharrir N. Ostonov.
Muhassib S. Islomov.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. Topshirildi – 04.40 1 2 3 4 5 6